

**ERTAKLARDA ZONIMLARNING OBRAZLAR  
SIFATIDA BERILISHI**

*Azizova Nafisa Orifjon qizi*

*Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

*azizovanafisa1002@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ertaklarda uchrovchi hayvonlar nomlari, ularning xalq turmush tarzi, madaniyatidagi o'rniga ko'r xalq og'zaki ijodida uchrashi va ularning obrazlar sifatidagi talqini ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ertaklar, zoonimlar, xalq og'zaki ijodi, ertaklarda obrazlar.

**Annotation:** In this article, the names of animals found in fairy tales, their place in the people's lifestyle and culture, their meeting in oral works of the blind people, and their interpretation as images are revealed.

**Key words:** fairy tales, zoonyms, folklore, characters in fairy tales.

Hayvonot dunyosi insoniyat tarixida muhim o'rin tutadi. Hayvonlar uy ishlari, oziq-ovqat ishlab chiqarish va boqish kabi bir qancha maqsadlarda foydalanilgan. Qaysidir ma'noda xalqlarning geografik joylashuvi hayvonlar va ularning ramziy ma'nosi haqida turli g'oyalar va qarashlarning rivojlanishiga olib keldi. Natijada qadimgi xalqlar tomonidan aytilgan rivoyatlar natijasida xalqlar ongida mifologik uyushmalar shakllangan. Hayvonlarning turli ramziy ma'nolarini yetkazishda qadimiy mifologik qarashlarning o'rni ayniqsa jahon xalqlari tili va madaniyatida katta.

Zoonimlar yoki hayvonlar nomlari turli madaniyatlarning hikoyalarida muhim rol o'ynaydigan nomlar qatoriga kiradi. Ular turli xil hayvonlar nomlarini o'z ichiga olganligi sababli, hayvonlarga bag'ishlangan turkumdagi hikoyalar diqqatga sazovordir. Bolalarga mos keladigan bu ertaklarda odamlarning ijobiy va salbiy tomonlari hayvonlar orqali tasvirlangan. Hayvonlar nomlanishi mumkin yoki ular bo'ri, quyon, ayiq yoki sher kabi ertaklarda zoonim sifatida paydo bo'lishi mumkin.

Ingliz xalq ertaklarida eng keng tarqalgan hayvonlar fox (tulki) va cat (mushuk) dir. Bundan tashqari, mouse (mushuk) va cock (xo'roz) obrazlari ham ko'p uchraydi. Dog (it), hen (tovuq), goose (g'oz), pig (cho'chqa), frog (qurbaqa), wolf (bo'ri), donkey (eshak) hayvon nomlarini ham uchramiz. Bunday hayvon nomlari zoonim sifatida keltirilganiga guvoh bo'lamiz.

L.Batka rus xalq va muallif ertaklarida uchrovchi zoonimlarni uch guruhga ajratadi:

1) bir onimli nomlar (Terentiy, Misha kabi);

2) ism+otasining ismi formulasi asosida yasalgan nomlar (Левон Иванович, Лизавета Ивановна, Козьма Микитич va b.),

3) laqablar (Трубу-закрывавай, Огнявздувай, Пеки-пирог и ва б.)<sup>1</sup>. Demak, rus xalq ertaklarida ism+otasining ismi formulali, laqabli zoonimlar ham qo'llanishi xarakterlidir. O'zbek tiliga xos ertaklarda zoonimlarning o'ziga xos jihati ularda hayvon nomlariga shaxslantiruvchi qo',shimchalar -voy, -boy, -xon, -oy qo'shimchalarining qo'shilishi asosida zoonimlarning yasalishidir.

Bu zoonimlarni yasaliş qo'shimchasiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

- ❖ voy qo'shimchasi asosida yasalgan zoonimlar: Laylakvoy ("Ur to'qmoq).
- ❖ boy qo'shimchasi orqali yasalgan zoonimlar: Tulkiboy ("Tulkiboy"), Tulkiboy ("Laylak bilan tulki"), Sichqonboy ("Qo'ng'iz bikach"), Qo'ng'izboy ("Qirq yolg'on"), Boriboy, ("Qarga, bug'u, bo'ri"), Mushukboy, Ilonboy ("Aldoqchi mushuk").
- ❖ xon qo'shimchasi orqali yasalgan zoonimlar: Qurbaqaxon ("Qurbaqaxon"), Qoraqurtxon ("Ilonshoh va Toshbaqapolvon")
- ❖ jon qo'shimchasi orqali yasalgan zoonimlar: Qarg'ajon, Bug'ujon ("Qarg'a, bug'u, bo'ri"), Mushukjon, Tulkijon, Quyonjon ("Bir kosa zahar"), Mushukjon, Maymunjon ("Aldoqchi mushuk").

O'zbek xalq ertaklarining alohida turkumini hayvonlar haqidagi ertaklar tashkil etadi. Bu turkum ertaklar jahon xalqlarining ko'pchiligida mavjud bo'lib, ba'zi xalqlar madaniyatida hayvonlar ramz darajasiga ko'tarilgan. Masalan: *Ot juvoz haydovchi, tuya yuk tashuvchi, it uy poylovchi, sigir sut beruvchi, qo'y go'sht-yog', ho'kiz qo'sh haydovchi*<sup>2</sup>.

O'zbek xalq ertaklarida muhim o'ringa ega hayvonlardan yana biri kiyik hisoblanadi. Kiyik – ertak, afsona va miflarda yorug'lik, poklik, yangilanish hamda baxt keltiruvchi mavjudot sifatida talqin qilinadi. "Zorlik bilan Munglik" nomli o'zbek xalq ertagida "Ona kiyik" obrazi mavjud bo'lib, homiy, yorug'lik (yorug' kunga eltuvchi) sifatlarini ifodalaydi: *Bir ona kiyik o'tlab yurib bolalarning oldiga kelib qolibdi. Uning ikki bolasini yaqinda bo'rilar yeb qo'ygan ekan, kiyik bolalarni darrov emiza boshlabdi. Kiyik ularning ustiga soya solib issiqdan, bag'riga bosib sovuqdan saqlab katta qilibdi, bolalar yo'lga yuradigan bo'libdi*<sup>3</sup>

O'zbek xalq ertaklarida sher obrazi alohida o'ringa ega. "Quyosh yerning pahlavoni", "O'tinchi yigit bilan sher", "Uch og'ayni botirlar", "Til tig'dan o'tkir", "Ziyod botir" kabi ertaklarda sher obrazi turli ramziy ma'nolarni ifodalab kelgan. Jumladan, "Quyosh yerning pahlavoni", "Til tig'dan o'tkir" ertaklarida sher insonlarga yordamchi, "O'tinchi yigit bilan sher" ertagida laqma, "Qirq kuyov" ertagida kenja shahzodaning mushkulini oson qiluvchi, "Uch og'ayni botirlar" va "Ziyod botir"

<sup>1</sup> Батъка Л. Ономастическое пространство русских народных и авторских сказок// <https://pandia.ru/text/78/077/30713.php>

<sup>2</sup> Uch og'ayni botirlar. "Mushuk, it va sichqon", 178-b.

<sup>3</sup> Oltin beshik. "Zorlik bilan Munglik", 213-b

ertaklarida tajovuzkor hayvon sifatida gavdalangan.

Xulosa qilib aytganda, barcha xalq ertaklarida turli darajada zoonimlar ishtirok etadi va ular ushbu xalqning turmush tarzi, madaniyati va e'tiqodi va dunyoqarashini aks ettiradi va zoonimlar orqali xalq og'zaki ijodini lingvokulturologik jihatdan o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Батъка Л. Ономастическое пространство русских народных и авторских сказок// <https://pandia.ru/text/78/077/30713.php>
2. Yoqubova Sh. “O,,zbek xalq dostonida ot obrazining aksi (“Go,,rog,,li” dostoni misolida)//XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta’lim taraqqiyotidagi dolzarb masalalar. I tom, 10-son. –b.250.
3. Исраилова С. Замонавий тилшуносликда халқ эртақларини ўрганишнинг лингвокультурологик хусусиятлари. // Сўз санъати. – Тошкент: 2020. № 5. 277-б.
4. Abdulloyeva K. Ingliz hamda o‘zbek ertaklarining lingvomadaniy va stilistik tahlili. // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2. 2021. № 5. ISSN: 2181- 1601. 377-381-b.
5. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: Mumtoz so‘z, 2010. – 228 b